

TA'LIM TIZIMIDA RAXBAR AYOLLAR FAOLIYATI: MUAMMOLAR VA ISTIQBOLLAR

Andijon davlat pedagogiga instituti
Qosimova Maftuna Abdukarim qizi
Mominova Madinaxon Alisherbek qizi
Alibekova Muxlisa Asqarjon qizi

Abstract: *This article analyzes the formation of women's leadership in Uzbekistan's education system, the challenges they face, and the prospects for their further development. The paper highlights the role of women in higher education, the state policies aimed at supporting them, the increasing representation of women in leadership positions, and the urgent issues related to ensuring gender equality.*

Keywords: *women leaders, education system, gender equality, higher education, innovation, state policy.*

Annotatsiya. *Ushbu maqolada O'zbekiston ta'lim tizimida rahbar ayollar faoliyatining shakllanishi, ularning duch kelayotgan muammolari hamda istiqboldagi rivojlanish yo'nalishlari tahlil qilinadi. Maqolada ayollarning oliy ta'limda tutgan o'рни, ularni qo'llab-quvvatlash bo'yicha davlat siyosati, rahbarlik lavozimlarida ayollar salmog'ining ortishi hamda gender tenglikni ta'minlashdagi dolzarb masalalar yoritilgan.*

Kalit so'zlar: *rahbar ayollar, ta'lim tizimi, gender tenglik, oliy ta'lim, innovatsiya, davlat siyosati.*

Аннотация: *В данной статье анализируется формирование деятельности женщин-руководителей в системе образования Узбекистана, рассматриваются проблемы, с которыми они сталкиваются, а также перспективы их дальнейшего развития. В работе освещается роль женщин в высшем образовании, государственная политика по их поддержке, рост доли женщин на руководящих должностях и актуальные вопросы обеспечения гендерного равенства.*

Ключевые слова: *женщины-руководители, система образования, гендерное равенство, высшее образование, инновации, государственная политика.*



KIRISH

So‘nggi yillarda O‘zbekiston Respublikasida ta‘lim tizimini modernizatsiya qilish, ayollarni ijtimoiy-siyosiy hayotda faol ishtirok etishini ta‘minlash davlat siyosatining ustuvor yo‘nalishlaridan biriga aylandi. Prezident farmonlari va davlat dasturlari orqali ayollarni rahbarlik lavozimlariga tayyorlash, ularning ilmiy va tashkiliy salohiyatini oshirishga alohida e‘tibor qaratilmoqda.

R. S. Radjabovanning tadqiqotlariga ko‘ra, 1990-yillardan boshlab ayollar oliy ta‘lim tizimida faol ishtirok eta boshlagan, ularning ilmiy unvonga ega bo‘lish ko‘rsatkichlari muntazam ortib bormoqda¹⁸. Shu bilan birga, “Yangilanayotgan O‘zbekiston: ilm-fan innovatsiyasida ayollar va yoshlar” ilmiy to‘plamida qayd etilganidek, bugungi kunda ayollar ilmiy innovatsiyalar, boshqaruv va ta‘lim sohaslarida yetakchi kuchga aylanmoqda. Mustaqillik yillarida ta‘lim sohasida olib borilgan islohotlar natijasida ayollar faoliyati yangi bosqichga ko‘tarildi¹⁹. 2010-yillarga kelib, oliy ta‘lim muassasalarida ishlovchi ayollar ulushi 40 foizdan ortdi, ularning 35 foizi magistratura bosqichida tahsil olayotganlar edi. 2022-yilga kelib esa 700 nafar ayol fan doktori, 4780 nafar fan nomzodi, 200 ga yaqin PhD darajasini olgan olimalar safida bo‘ldi. Bu raqamlar O‘zbekiston ayollarining nafaqat ilmiy, balki boshqaruv salohiyatining ham ortib borayotganini ko‘rsatadi.²⁰ Xususan, oliy ta‘lim muassasalarida dekan, kafedra mudiri, prorektor kabi lavozimlarda faoliyat yuritayotgan ayollar soni sezilarli darajada oshgan. Shunga qaramay bir qator ta‘lim sohasidagi tashkilotlarda ayollarning rahbarlik faoliyatida juziy kamchiliklar, boshboshdoqlik kayfiyati, boshqa ayrim sabablar bilan samaradorlikning yuqori emasligi ko‘zga tashlanadi.

Ta‘lim tizimida ayollarning rahbarlik lavozimlariga chiqishida bir qator muammolar mavjud:

- **Gender stereotiplari** – ayollarni “oilaviy rol” bilan cheklashga urinish, ularning rahbarlik fazilatlariga ishonchsizlik;

- **Tashkiliy to‘siqlar** – yuqori lavozimlarga tayinlashda shaffoflikning yetishmasligi;

- **Motivatsiya muammolari** – ilmiy unvonga ega bo‘lgan ayollar soni ko‘paygan bo‘lsa-da, boshqaruv darajasida ular soni nisbatan kam;

¹⁸ Раджапова С.Б. Олий таълим тизимида аёллар фаолияти. – *Modern Science and Research*, 2024.

¹⁹ *Yangilanayotgan O‘zbekiston: ilm-fan innovatsiyasida ayollar va yoshlar*. – Toshkent: Tadqiqot, 2020.

²⁰ Ўзбекистон Республикаси Президентининг “2017–2021 йилларда Ўзбекистон Республикасини ривожлантиришнинг бешта устувор йўналиши бўйича Ҳаракатлар стратегияси” Фармони.



• **Ijtimoiy yuklama** – ayollar uchun ish va oilaviy majburiyatlarni muvofiqlashtirish masalasi hamon dolzarbdir.

Bularning barchasi ayollarning salohiyatini to'liq namoyon etishga to'sqinlik qiladi.

Shuni ham etibordan chatda qoldirmaslik kerakki prezidentning “Xotin-qizlarni qo'llab-quvvatlash va ularning jamiyatdagi rolini oshirish to'g'risida”gi qarorlari asosida ayollarni ta'lim va rahbarlikka jalb etish, ularning huquq va manfaatlarini himoya qilish bo'yicha kompleks dasturlar amalga oshirilmoqda. “Ilm, ma'rifat va raqamli iqtisodiyotni rivojlantirish yili” davlat dasturida ham ayollarni oliy ta'lim tizimiga keng jalb qilish, ularning ilmiy izlanishlariga grantlar ajratish belgilangan²¹. Ushbu jarayonda “Olima ayollar” uyushmasi, xotin-qizlar qo'mitalari hamda xalqaro tashkilotlar bilan hamkorlikda ayollarni rahbarlikka tayyorlash bo'yicha treninglar o'tkazilmoqda. Bugungi kunning istiqbolli yo'nalishlari sifatida xotin-qizlarni ilmiy qilish, ularni ma'rifatli jamiyat qurilishida asosiy o'ringa chiqarish, ta'lim va tarbiyaning uyg'unligini ta'minlashda yetakchi kuch sifatida namoyon bo'lishlari uchun g'ayratli, olima, mehnatsevar, rahbar ayol kadrlarni tarbiyalash muhim ahamiyat kasb etadi. Demak kelajakda ta'lim tizimida rahbar ayollar faoliyatini yanada takomillashtirish uchun quyidagi yo'nalishlar muhim hisoblanadi:²²

- Rahbar ayollar uchun **mentorlik tizimini** joriy etish;
- Ayollar ishtirokidagi boshqaruv organlarini **kvotalash** orqali gender muvozanatini ta'minlash;
- Ayollar uchun **moslashuvchan ish sharoitlari** yaratish;
- Rahbarlik lavozimlarida faol ayollar tajribasini **tizimli o'rganish va ommalashtirish**;
- Oliy ta'lim tizimida **gender auditi** tizimini joriy qilish.

Xulosa. Ta'lim tizimida rahbar ayollar faoliyati — bu jamiyat modernizatsiyasi va ijtimoiy adolatni ta'minlash yo'lida muhim omildir. O'zbekiston ayollari ilmiy, ma'rifiy va rahbarlik sohalarida o'z salohiyatini to'liq namoyon etmoqda. Ammo bu jarayonni yanada samarali qilish uchun ularni qo'llab-quvvatlash tizimi chuqurlashtirilishi, ijtimoiy va tashkiliy to'siqlar bartaraf etilishi zarur.

²¹ “Xotin-qizlarni qo'llab-quvvatlash va oila institutini mustahkamlash strategiyasi – 2030”, Toshkent, 2022.

²² Gafforova M. **O'zbekistonning ijtimoiy-siyosiy hayotida xotin-qizlarning o'rni**. Nomzodlik dissertatsiyasi. Toshkent, 2018.



FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Раджапова С.Б. Олий таълим тизимида аёллар фаолияти. – Modern Science and Research, 2024.
2. Yangilanayotgan O‘zbekiston: ilm-fan innovatsiyasida ayollar va yoshlar. – Toshkent: Tadqiqot, 2020.
3. Ўзбекистон Республикаси Президентининг “2017–2021 йилларда Ўзбекистон Республикасини ривожлантиришнинг бешта устувор йўналиши бўйича Ҳаракатлар стратегияси” Фармони.
4. “Xotin-qizlarni qo‘llab-quvvatlash va oila institutini mustahkamlash strategiyasi – 2030”, Toshkent, 2022.
5. Gafforova M. O‘zbekistonning ijtimoiy-siyosiy hayotida xotin-qizlarning o‘rni. Nomzodlik dissertatsiyasi. Toshkent, 2018.

